

# MAKTAB VA HAYOT

ISSN 2010-5460

ILMIY-METODIK JURNAL

## Ushbu sonda:

2 – bet

INTERFAOL TA'LIM MODELINING  
O'ZGA TILNI O'RGATISHDAGI  
DIDAKTIK IMKONIYATLARI

7 – bet

INSON QOBILIYATLARI TAKSONOMIYASI

12 – bet

O'SMIR YOSIIDAGI O'QUVCHILARNING O'ZIGA  
XOS PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

19 – bet

MEHNAT TA'LIMIDA ZAMONAVIY  
YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH KAR  
VA ZAIF ESHITUVCHI O'QUVCHILARNI IJTIMOIY  
HAYOTGA TAYYORLASH OMILI SIFATIDA

6  
2018

## Ruknlar

- DOLZARB MAVZU
- AMALIY PSIXOLOGIYA
- MAXSUS TA'LIM
- AXBOROT TEXNOLOGOYALARI
- SOG'LOM AVLOD UCHUN

## BOSH MUHARRIR

Abdurashid Xundibayev

## TAHRIR HAY'ATI

Amanjol AYAPOV

Boris BLYAXER

Risboy JO'RAYEV

Sevara ZUPARXODJAYEVA

Ulug'bek INOYATOV

Lola MO'MINOVA

Vahobjon RAJAPOV

Nargiza RAXMONQULOVA

Sherzod SHERMATOV

Shavkat SHARIPOV

Shavkat QURBONOV

Mas'ul kotib

Baxtiyor Ummatqulov

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjaeva

Kompyuterda terish va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Mualifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqpolarining uslubiy xatolarni to'g'flash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab oлади. Tahririyatga yuborilgan maqpolar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualifning familyasi, ismi, sharifi ulaming rasportleri ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassisalar:

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxisi markazi

«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

«MAKTAB VA HAYOT»dan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan  
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,  
Olmazor l., Ziyo ko'chasi, 6A uy.  
Tel: (0371) 246-21-02  
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019



## MUNDARIJA

### D.A.HIDOVATOVA.

Interfaol ta'lif modelining o'zga tilni o'rgatishdagi didaktik imkoniyatlari

### X.A.AXMEDOV.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda qo'llaniladigan psixologik o'yinlar

### S.N.AKBAROVA.

Inson qobiliyatları taksonomiyası

### A.I.RASULOV.

Shaxsni psixologik tashxis etishning proaktiv usullari

### R.T.SODIQOV.

O'smir yoshidagi o'quvchilarning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari

### H.M.QDIRBAEVA.

Yaqin kattalar vositasida o'quvchilarda ijtimoiy intellekti rivojlantirish

### F.U.QODIROVA.

Mehnat ta'limida zamonaliv yondashuvlardan foydalanish kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash omili sifatida

### N.YU.YUSUPOVA.

Yordamchi maktab ta'lif jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish

### M.J.SAIDOVA.

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini innovatsion texnologiyalar orqali o'qitishning usullari va ularning ahamiyati

### N.M.MUXITDINOVA, A.V.SADIKOVA.

4-sinf matematika darslarida pozitsion va nopoziotsion sanog sistemasini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rgatish

### Z.OTAXONOVA.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida matematik diktantlardan foydalanish

### B.JO'RAEV.

O'spirinlarda huquqiy madaniyatni takomillashtirishning tarbiyaviy asoslar

### ILOVA:

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI  
PSIXOLOGLARI UCHUN NAMUNAVIY  
ISH REJA

D.A.Hidoyatova,

Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTMOMM "Pedagogika, psixologiya va ta'lif texnologiyalari" kafedrasi dotsenti v.b., falsafa doktori pedagogika fanlari bo'yicha (PhD)

## INTERFAOL TA'LIM MODELINING O'ZGA TILNI O'RGAJISHDAGI DIDAKTIK IMKONIYATLARI



В этой статье описываются дидактические возможности интерактивного метода обучения языку, проанализированы результаты исследования.

**Ключевые слова и понятия:** интерактивные методы, «Ролевая игра», узбекский язык, дидактические возможности.

This article describes the didactic possibilities of the interactive method of teaching the language, analyzed the results of the study.

**Key words and concepts:** interactive methods, «Role play», Uzbek language, didactic possibilities.

**J**interfaol metodlarning barchasi muayyan darajada didaktik imkoniyatga ega. Birroq ularning barchasi til, shu jumladan, ta'lif rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'rnatishda birdek samara bermasligi mumkin. Bu interfaol metodlar mohiyati va ularni qo'llash shartlariga muvofiq ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, madaniy masalalarni muhokama qilish, shuningdek, til xususiyatlarini yoritishda yuqori va past samaradorlik ko'satkichlari orqali ta'lif amaliyotida o'z isbotini topgan. Shu sababli ta'lif turi, o'rganilayotgan fan va mavzu yo'nalishi, g'oyasi, ko'lami va boshqa jihatlariga ko'ra interfaol metodlarni to'g'ri tanlay olish maqsadga muvofiq.

Quyida turkum interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlari va tilni, shu jumladan, o'zbek tilini o'rnatishda foydalanish afzalliklari keltiriladi.

**Rolli o'yinlar** o'zbek tilini o'rganishda o'quvchilarda til ko'nikmalarini shakllantirish, ularni o'zbek tilida so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rnatish, erkin muloqotga, shuningdek, kasbiy muloqot yuritishga amaliy jihatdan tayyorlash va eng muhimmi, ularning lug'at boyliklarini ko'paytirish, qo'shimcha material sifatida berilgan badiiy asarlardan parchalar bilan tanishish, ularning g'oyalarni obrazli o'zlashtirish, shuningdek, yangi o'zlashtirilgan so'zlar yordamida o'zaro suhbat (dialog)larni tashkil etish maqsadida qo'llaniladi. Ushbu interfaol metod shartli, ya'ni auditoriya, sind mashg'ulotlarda sun'iy vaziyatlar yordamida o'quvchilarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ular duch keladigan tabiiy muloqot o'rnatishga yordam beradi. Mazkur shartli kommunikativ vaziyatlar o'qituvchilarga aynan shu vaziyatda qo'llanadigan so'zlar, gaplarni to'g'ri tanlash, hamkorlar bilan mu-loqot yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam

beradi. Bu o'rinda keyingi "O'zbek tili" darsliklariga alohida rukn bilan kiritib borilayotgan "Adabiyo'qish" materiallarining uzlusiz berib borilayotganligi, darsliklarda mavzularga oid dialog-suhbatlarning berilishi, "Suhbatni rolli o'qing va davom ettiring", "O'zaro suhbatlashing" kabi topshiriqlari aynan shu maqsadni amalga oshirishga qaratilganini qayd etish joiz. Rollar o'quvchilar tomonidan ijro etilganligi bois, ular o'zlashtirilayotgan nazariy ma'lumotlar to'g'risida to'la tasavvurga, shuningdek, amaliy ko'nikmalarga ega bo'la oladilar. Didaktik xarakterdagи o'yinlarning rollar asosida bajarilishi o'quvchilarda mas'uliyat hissini ham shakllantiradi, zero, mas'uliyatni his qilmasdan turib, ma'lum roling xarakterini ochib berish mumkin emas.

Har qanday zamонавий ta'lif metodlari kabi ta'lif rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishda rolli o'yinlardan foydalanishning ham eng jiddiy ahamiyati o'quvchilarda tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, ularning o'quv faoliyklarini oshirish, o'qituvchi va o'quvchilar hamda o'quvchilarning o'zları orasida ham ijodiy hamkorlik muhitini yaratishdan iborat.

Ta'lif rus tilida olib boriladigan maktablari o'zbek tilli o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida interfaol rolli o'yinlardan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini oshirish maqsadida "Sinf majlisi" rolli o'yini o'tkazildi. O'yin shartiga ko'ra, ishtiroychilar shu rollarni ijro etishlari zarur bo'ladi. O'yinda muktab rahbari, sind rahbari, o'zbek tili fani o'qituvchisi, past baho oluvchi o'quvchi (qiz bola) va otasi, past baho oluvchi o'quvchi (o'g'il bola) va onasi, sind yetakchisi ishtiroy etadilar. Muammo – o'quvchilar bahosining pasayishi sabablari va uni yaxshilash choralar.

Barcha rollarga vazifalar tanaffusda topshiriladi. (Bu jarayonda o'qituvchi-trener rollarni o'zi tanlab topshirishi mumkin. Masalan, lider ishtirokchiga past baho oluvchi o'quvchi roli berilsa, u shu vaziyatga tushib, o'quvchini yaqinroq tushunishi imkoniyati tug'iladi).

Rol ijobchilariga quyidagicha izohlar beriladi:

**Maktab rahbariga:** Sizning eng yaxshi sinfiginzning reytingi tushib ketdi. Siz aybdorlarni tezroq jazolamoqchisiz, sizning nazaringizda bunga sinf rahbari, fan o'qituvchilari, ota-onalar va o'quvchilar aybdorlar.

**Sinf rahbariga:** Sizning o'tgan 6 yil mobaynida rahbarlik qilayotgan sinfigiz maktabning eng ilg'or sinfi bo'lib kelgan, ammo o'zbek tili fani o'qituvchisi a'lo baholarga o'qiydigan 2 ta o'quvchingizga chorak yakuni bo'yicha yomon baho qo'yan, shuningdek, bu yillar mobaynida maktab rahbari sizga o'z minnatdorchiligin bildirmadi, ota-onalarning ham e'tibori susaygan.

**O'zbek tili fani o'qituvchisiga:** Siz past baho qo'yan o'quvchilar hamda o'sha sinf rahbari sizning qo'yan bahoingizdan norozilar. A'lo baholarga o'qigan bu o'quvchilar sizning darslariningizni va bu fanni yaxshi bilishlarini aytadilar, lekin uy vazifalarini bajarmay keladilar.

**Past baho oluvchi o'quvchi (qiz bola)ning otasiga:** Maktab direktori sizni 15.00 ga sinf majlisiga telefon qilib chaqirgan. Kelmasangiz qizingizni boshqa sinfga o'tkazishlarini ma'lum qildi. Ishxonangizda esa 15.30 da uchrashuv borligini kotibangiz aytgan.

**Past baho oluvchi o'quvchi (o'g'il bola)ning onasiga:** Sizni sinf rahbari 15.00 ga sinf majlisiga telefon qilib chaqirgan. Uning aytishi bo'yicha, o'g'lingiz maktabda o'qituvchilar bergan topshiriqlarni bajarmayotgan emish. Uyda o'g'lingiz xonasida soatlab "dars tayyorlayapman" deb, qolib ketadi. Kim yolg'on gapi rayotganini aniqlashingiz kerak, lekin majlisga kelayotganingizda uyingizga mehmon kelishini aytishdi.

**Past baho oluvchi o'quvchi (qiz bola)ga:** Siz o'zbek tilida yaxshi gaplashasiz, lekin o'zbek tili o'qituvchisi chorak yakuni bo'yicha sizga past baho qo'ysi. Boshqa bir nechta fanlardan ham bahoingiz ozgina tushgan. Chunki darslar borgan sari qiyinlashib boryapti, uyda esa ota-onangizdan yordam so'rasangiz ishdan charchab kelishganini aytishadi.

**Past baho oluvchi o'quvchi (o'g'il bola)ga:** Sizga ota-onangiz bu chorakni yaxshi baholarga bitirsangiz eng zamonaviy telefon apparati olib berishlarini aytishgan, lekin bu chorakda baholaringiz tushib ketdi.

**Sinf yetakchisi:** Sinf doshlaringizning baholari tushib ketdi, siz ularga yordam bermoqchisiz, ammo past baho olishlariga o'zları sababchi, o'qituvchilar bergan topshiriqlarni vaqtida bajarmayotgan edilar.

Jarayon boshlanishidan avval vaqt belgilab olinadi.

Imkoniyat bo'lsa, jarayon tasvirga olinishi ham mumkin. Rolli o'yin tugagach, ishtirokchilarga minnatdorchilik bildirib, jarayon ishtirokchilar bilan muhokama qilinadi (tasvirga olingen bo'lsa, video tasmani ko'rib bo'lib, keyin muhokama o'tkaziladi).

Ta'limga rus tilida olib boriladigan maktablar o'zbek tili o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida interfaol metodning shu ko'rinishidan samarali foydalanish ko'nikma va malakalari tajribalar davomida sezilarli darajada oshdi. Natijada, 6-7-sinf o'zbek tili darsligi asosida turli mavzular bo'yicha interfaol metodlardan bo'lgan rolli o'yin metodi yordamida dars ishlanmalari ishlab chiqildi.

Masalan, ta'limga rus tilida olib boriladigan maktablarning 6-sinf uchun mo'ljallangan "O'zbek tili" darsligida "Men sevgan ko'rsatuv" mavzusi bo'yicha malaka oshirish jarayonida tinglovchilar (ta'limga rus tilida olib boriladigan maktablarining o'zbek tili o'qituvchilari) bilan rolli o'yin tashkil qilish mumkin. Bunda ular "Men sevgan ko'rsatuv" jarayoni orqali turli rollarni (rejissyor, boshlovchi, intervju beruvchi, liboschi-dizayner) ijo etib, turli vaziyatlarni kuzatadilar, muammodan chiqish yo'llarini qidiradilar va vaziyat ishtirokchisiga aylanadilar. Jarayon yakunda tinglovchilar bilan ushbu rolli o'yinning vaziyatlari va rolli o'yinni tashkillashtirish yuzasidan muhokama olib boriladi. Bu esa tinglovchilarining metodidan maqsadli va to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini oshirishiga yordam beradi. Ta'limga rus tilida olib boriladigan maktablar o'quvchilari tomonidan mazkur mavzu bo'yicha belgilangan rollarining ijo etilishi ularning nutqlarini rivojlantiribgina qolmay, shu bilan birga suhbatsoshga murojaat qilish, bu o'rinda mimika, pantomimika va imo-ishoralardan foydalana olish ko'nikmalarini ham o'zlashtirishga hamda o'zbekcha atamalarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish imkoniyatini beradi.

Tajribalar davomida ta'limga rus tilida olib boriladigan maktablarning 6-sinfida mazkur metod qo'llanildi, ya'ni dars "Men sevgan ko'rsatuv" (darslikning 6-mavzusi) mavzusida tashkil etildi. Darslikda shu mavzuga moslashtirilib taqdim etilgan o'zbek tilidagi lug'at asosida: tasvir, ixtiro, takomillashtirish, teleko'rsatuv, moslama, muntazam kabi so'zlar keltirilgan. Tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan mashg'ulot yakunida o'quvchilar yuqorida berilgan so'zlar tarjimasining 68 foizini to'g'ri yozishganini ko'rish mumkin.

Rolli o'yinlarning kutilgan samarani bera olishi uchun bir qator shartlarga rioya qilish maqsadga muvofiq. Jumladan,

- tinglovchilarga nazarda tutilayotgan rolli o'yin mavzusi, mazmuni haqida ma'lumot berish;

- o'yin shartlari bilan tanishtirishda ko'rsatmalarining qisqa, aniq va tushunarli bo'lishiga e'tibor qaratish;

- rollar taqsimlangandan so'ng tayyorlanish uchun aniq vaqt (reglament)ni belgilash;

## Dolzarb mavzu

- kutilayotgan natijani aniqlashtirish;
- agar rolli o'yin bir necha guruh ishtirokini talab etadigan bo'lsa, u holda har bir guruhning taqdimoti uchun oldindan vaqtini belgilab olish;
- o'yinga jalb qilinmagan tinglovchilarning kuza-tuvchi yoki ekspert sifatida muayyan vazifalarni bajarishlari yuzasidan topshiriq berish;
- rolli o'yin ijobiyidan so'ng, albatta, u yuzasidan muhokama tashkil etish.

Muhokama jarayonida tinglovchilarning e'tiborini

o'quvchilarning o'yin faolligiga ta'sir qilmaslik [2].

Xitoy Xalq respublikasining Kingdao (Qingdao) ilmiy va texnologiya universiteti olimlari Feng Liu va Yun Dingning qayd etishicha, ingliz tilini o'rgatish bo'yicha xitoy tilida so'zlashuvchi 30 nafar 1-kurs talabalari bilan turli mavzulardagi rolli o'yinlar mashg'ulotlari tashkil etilishi natijasida 21 nafar tinglovchi, ya'ni tinglovchilarning 70 foizi yangi mavzu bo'yicha berilgan so'zlardan samarali foydalanishgani kuza-tilgan [3].

Chet el olimlarining tadqliqotlarida amaldagi interfaol metodlardan o'zga tilni o'qitishda foydalanishdagi samaradorlik ko'rsatkichlari				Tadqliqot doirasida o'zbek tilini o'qitish uchun moslashtirilgan, takomillashtirilgan interfaol metodlar			
Nº	Interfaol metod	Xorij olimlari va tadqliqot olib borilgan joy	O'zga tilni o'qitishdagи samaradorligi	Takomillashtirilgan interfaol metodlar	Ularni moslashtirish yo'nalishlari	Samaradorligi (6-8 sinflar)	O'quvchilarda rivojlanaqidagi kompetensiylari
	Rolli o'yinlar	Feng Lui, Yung Ding Kingdao Universiteti (Xitoy xalq Respublikasi)	70%	Rolli o'yinlar: "Sinf majlis", "Tabiat"	O'zbek tili fani mavzulariga moslashtirilgan dialoglar tashkil etiladi	68%	Lingvistik, jismoniy, mantiqiy fikrash, o'zaro munosabat (kirishuvchanlik) kompetensiylari

u yoki bu ishtirokchining ijrochilik mahoratiga emas, balki guruhda qanday hodisa sodir bo'lganligiga, ya'ni namoyish etilgan hodisaning tahliliga qaratish, asosiysi, mashg'ulot davrida kommunikativ jarayoni samarali tashkil etish lozim.

Rolli o'yinning maqsadi muloqotni amaliyotda qo'llash bo'lib, tinglovchilarga so'zlarning mosini tanlashga yordam beradi, imkon yaratadi. Umuman olganda hayotiy vogelikka yaqinlashtirilgan jarayon tinglovchilarda qiziqish uyg'otadi. Rolli o'yin metodidan foydalanishda mashg'ulot mavzusini o'quvchilarning yoshi va tajribasidan kelib chiqib tanlash zarur.

O'yinlar yuzasidan muhokamaning tashkiliy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi uchun o'quvchilarning e'tiborini aniq holatlarga qaratish maqsadida bir necha savollarni o'rtaqa tashlash va tinglovchilarning ularga aniq, lo'nda va qisqa javob bera olishlarini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi shartlarga amal qilinishi rolli o'yinlarining muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlovchi omillardir:

- 1) jamoa a'zolari o'rtaida samimiy ishchanlik muhitini qaror toptirish;
- 2) o'yin jarayonida qat'iy talablar qo'yishdan saqlanish;
- 3) o'quvvchilar va o'quvchilarning erkin, bemalol, o'ziga ishongan holda, xotirjam harakat qilishlariga erishish;
- 4) sinfda qulay sharoitning mavjud bo'lishi (shovqin darajasini nazorat qilish, o'quvchilarni chalg'ituvchi harakatlarni sodir etmaslik);
- 5) sinfda tartib va tinchlikni saqlash maqsadida

4

Demak, tilni zamonaviy ta'lim asosida o'rgatish o'quvvchilar o'rtaida o'zaro hamkorlik, hamjihatlikni yuzaga keltirish orqali bilimlarni samarali o'zlashtirishga imkon beradi. Ayniqsa kommunikativ jarayonda kechadigan metodlardan keng foydalanish samarali natijani kafolatlaydi. Interfaol metodlar son jihatidan ko'p va mazmunan boy bo'lib, har biri o'quv materialini u yoki bu jihatdan puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili o'quvvchilarini malakasini oshirishda o'rganilayotgan mavzu yo'nalishi, mazmuni va xususiyatlari ko'ra interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi turlicha kechishi mumkin. Shu sababli ularning o'rinni, maqsadga muvofiq tanlanishi va qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega.

### Adabiyotlar

1. Hidoyatova D.A. Interfaol ta'lim modeli vositasida ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar o'zbek tili o'quvvchilarining malakasini oshirish jarayoni samaradorligini oshirish: diss. falsafa. dok (PhD) 13.00.02. – Tashkent, 2017. – 198 b.

2. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.К. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учеб. пос. // Под ред. Е.С.Полат. – М.: Издательский центр "Академия", 1999. – 224 с.

3. <http://citeseerx.ist.psu.edu/viewdoc/download?doi=10.1.1.1013.9714&rep=rep1&type=pdf>